



SINFAN TASHQARI MUSIQIY-TARBIYAVIY ISHLARNING

OMMAVIY SHAKLLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Azamkulov Gayrat Otakuziyevich

Guliston davlat universitetining “An’anaviy xonandalik va xalq cholg’ulari”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya : *ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchi - yoshlarga ta'lim berishda, maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashda, yanada takomillashtirishda, musiqa faniga, maqom yo'nalishigalarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilishda sinfdan tashqari tashkil etiladigan maqom- ansambl to'garaklarining ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar : *ta'lim-tarbiya, sinfdan tashqari ishlar, maqom, ansambl, to'garak*

Annotation: *this article highlights the importance of extracurricular - organized status - ensemble circles in educating students and young people in secondary schools, strengthening their knowledge gained at school, further improving, gaining interest in music science, status areas, dressing up new knowledge, skills and qualifications.*

Keywords: *education, extracurricular activities, status, ensemble, circle*

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, 2024-yil 1-fevralda O'zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni va

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizasiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning “...Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga



hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – degan fikrlari maqsadimizning tasdig'i sifatida biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Bu borada aynan, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni tadbqiq etish, sifat va mazmunga, samaradorlikka erishish, o'quvchini erkin fikr yuritishga, o'z shaxsiy pozitsiyasini qat'iy himoya qilishga o'rgatishda umumta'lim fanlaridan sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning o'рни va ahamiyati beqiyos. Bu esa bizning oldimizga:

- mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida umumta'lim fanlaridan - sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishni tahlil qilish;
- umumta'lim fanlaridan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullari bo'yicha tahliliy xulosalar ishlab chiqish;
- pedagog xodimlar kasbiy mahoratini oshirishda ta'lim resurslaridan foydalanishni yangi sifat bosqichiga ko'tarish kabi dolzarb vazifalarni yukladi.

Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari tashkil etiladigan "Ansambl", "Raqs", "Cholg'uchilar", "Maqom", "Ashula va raqs" to'garaklari "Musiqqa madaniyati" fanining mantiqiy davomi bo'lib, mazkur fan bo'yicha chuqurlashtirilgan ta'lim hisoblanadi. Shuning uchun to'garak xonalarini zamonaviy texnika bilan jihozlash, cholg'u asboblari va o'qitish vositalari bilan ta'minlash, dastur va uslubiy qo'llanmalar bilan boyitish lozim bo'ladi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchi yoshlarni to'garak mashg'ulotlariga jalb etish bo'yicha targ'ibot ishlarini rivojlantirish maqsadida ommoviy axborot vositalaridan foydalanish, maktablarda to'garak qatnashchilari ishtirokidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsertlar, uchrashuvlar tashkil qilish, to'garak rahbarining maktab bilan uzviy aloqasini o'rnatish zarur.



Sinfdan tashqari to'garaklarda olib boriladigan barcha ishlar faqat tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki yoshlarga ta'lim berishni ham ko'zda tutadi. Bu dastavval, o'quvchilarning maktabda olgan bilimlarini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, ularning barcha fanlarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilish kabi faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Zero, o'qituvchi tomonidan mashg'ulot jarayonida pedagogik trening, sharhlab o'qitish, tayanch sxemalar va belgilar, yangi pedagogik ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, rolli o'yinlar uslublarini dars jarayonida qo'llash orqali o'smirlar o'z tengdoshlari orasida faollik ko'rsatadi, ijtimoiy hulq va harakatlarning andozalarini o'zlashtiradi, kattalar hayotiga kirib boradi, o'quvchilar bajarayotgan rolga ko'ra bir-birlariga bo'ysinadilar va boshqarishni o'rganadilar. Ana shu tariqa o'quvchi shaxsida aqliy qobiliyat, shaxsiy va ijtimoiy burch hislari, o'tkir zehn tarkib topadi, tenglik, birdamlik tuyg'ulari, insoniy fazilatlaridan - samimiyat, or-nomus, hushmuomalalik, sertakallulfilik kabilar tug'ila boshlaydi. Mazkur yuksak tuyg'ularning amaliyotga joriy qilish jarayoni o'smir shaxsida yuksaklikka intilish ishtiyoqi tarbiyalanadi. Shu bois o'smir yoshdagi o'quvchilar dunyoqarashida ahloqiy qadriyatalar va insoniylik sifatleri to'g'risida bilimlar ham tushunchalarning kamol topishi, komil shaxs bo'lib barkamol avlod bo'lishiga asos bo'ladi. Bu jarayonning kechishini ilmiy jihatdan tadqiq etish va ilmiy qonuniyatlar asosida shart-sharoitlarning yaratilishi, o'z navbatida, inson shaxsini tarkib toptirish bilan shug'ullanuvchi barcha umumta'lim, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'qituvchi-pedagoglarga uslubiy qurol sifatida xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllari maxsus tayyorgarlikka, keng, alohida layoqatga ega bo'lmagan, musiqiy bilim va malakalari etarlicha shakllanmagan bolalar jamoasini nazarda tutadi. Bolalarga musiqiy tarbiya berishining ommaviy shakllari – maktab o'quvchilarining musiqiy qobiliyat darajasidan qat'iy nazar amalgam oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ommaviy musiqiy ishlarga ma'ruzali konsertlar, musiqali spektakllarini jamoa bo'lib tomosha qilish, ommaviy musiqa bayramlarini tashkil etish, festivallar, karnavallar, ko'rik-tanlovlar kiradi. Mana shunday tadbirlar jarayonida musiqa pedagoglari musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalarni ajratib olishga hamda ularning mavjud bilimlarini yanada



rivojlantirishga, ularda musiqiy-estetik tuyg'ularini uyg'otishga va takomillashtirishga yordam berishi kerak. Mazkur ishlarni amalga oshirish yo'lidagi dastlabki tadbirlar ko'p sonli bolalar ommasini qamrab olgan bolalar badiiy havaskorlik ko'rik-tanlovlari hisoblanadi.

Musiqqa darsi va sinfdan tashqari mashg'ulotning asosiy maqsadlari bir-biriga yaqin bo'lgan chog'da ham ansambl to'garagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi navbatda, bu bolalarning turli yoshga mansubligida namoyon bo'ladi. Quyi sinf ansambl guruhlariga, ko'pincha, 1-4, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining, o'smirlar guruhi yoki 4-9 sinf o'quvchilarini birlashtiradi yoki 4-6, 7-9 sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi.

Jamoadagi maqom yo'nalishida ansambl - ijrochilik ishi nafaqat alohida e'tiborni, balki muntazam ravishda bolalarga ta'lim berishini ham talab qiladi. Mashg'ulotlar davomiyligi maqom ansambl to'garagi qatnashchilarining yoshlariga bog'liqdir. Amaliyot ko'rsatadiki, kichik ansambl guruhi bilan haftada ikki marta 45 minutdan mashg'ulot o'tkazish maqsadga muvofiq. O'smirlar ansambl guruhi esa tanaffus bilan ikki akademik soatdan shug'ullanishi mumkin. Ansambl to'garagida bolalar uchun qulay va qiziqarli, ularning ahl va ruhiyatini boyitadigan, ijrosi engil bo'lgan asarlarning tanlashi katta ahamiyatga egadir.

Sinf va sinfdan tashqari maqom ansambl to'garagidagi ish usullari ko'p hollarda bir-biriga o'xshab ketadi (masalan, asar bilan tanishish, uning qisqa tahlili, qo'shiqni jumalarga bo'lib o'rganish va hokazo), ammo ansamblidagi mashg'ulot jarayoni asarlarning audio yozuvini eshittirish hamda o'quvchining o'zining ijrosida eshitish imkonini beradi. Bularning hammasi o'rganiladigan asar repertuarini chuqur va tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni zamonaviy innovasion yondashuvlar asosida olib borish har bir musiqqa fani o'qituvchisi va to'garak rahbarining zimmasiga juda katta ma'sulyatni yuklaydi. O'smirlarning milliy o'zligini anglashlarida milliy an'analar, san'at va madaniyat xususan milliy musiqaga, maqom yo'nalishiga qiziqishlari katta ahamiyatga ega.



Bu qiziqishlarni rivojlantirishda maktabda sinfdan tashqari to'garaklarning o'rni alohida ahamyatga ega. Zero, mazkur to'garaklar, umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni biladigan bilim olishga chanqoq, o'z qiziqishi va intilishlari bilan kelgan o'quvchi-yoshlar bilan ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi №140-sonli Qarori.
2. M. A. Nurmatova «Musiqqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuar» fani bo'yicha ma'ruzalar matni -Ur., 2006
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: "O'zbekiston". – 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – . 5. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. (ilmiy – usluby tavsilar) II qism. - T. : "Sharq". 2000